



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O‘ZBEK JAMIYATINING BARQAROR TARAQQIYOT TAYANCHI

Ergashev Inomjon

Farg‘ona davlat universiteti, tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqola o‘zbek jamiyatining barqaror taraqqiyotga olib boruvchi milliy ma’naviyati, milliy g‘oyasi va tafakkuridagi o‘zaro bog‘liqlik jihatlarini o‘rganilgan. Xususan, o‘zbek xalqining ong-u tafakkuridagi tinchlik va barqarorlik milliy ma’naviyati bilan sug‘orilganlik masalasi bosh masala sifatida tahlil etilgan. Maqolada o‘zbek xalqining tinchlikni ulug‘lash va e‘zozlash tajribasi dunyo hamjamiyati tomonidan e’tirof etilayotganligi ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek, o‘zbek jamiyati, barqarorlik, taraqqiyot, makon va zamon, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, kiberjinoyatchilik, migratsiya, xalqaro huquq.

ОСНОВА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОГО ОБЩЕСТВА

Эргашев Иномжон

Ферганский государственный университет, исследователь

Аннотация

В данной статье исследуются взаимосвязанные аспекты национальной духовности, национальной идеи и мышления, способствующие устойчивому развитию узбекского общества. В частности, в качестве основной проблемы анализируется вопрос о том, что идеи мира и стабильности в сознании и мышлении узбекского народа пронизаны национальной духовностью. В статье также раскрывается, что опыт узбекского народа в почитании и возвышении мира признаётся мировым сообществом.

Ключевые слова: узбек, узбекское общество, стабильность, развитие, пространство и время, терроризм, экстремизм, радикализм, киберпреступность, миграция, международное право.

THE FOUNDATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEK SOCIETY

Ergashev Inomjon

Fergana State University, Researcher

Abstract

This article examines the interrelated aspects of national spirituality, national ideology, and thinking that contribute to the sustainable development of Uzbek society. In particular, the issue that the ideas of peace and stability in the consciousness and thinking of the Uzbek people are deeply rooted in national spirituality is analyzed as a key problem. The article also highlights that the Uzbek people's tradition of honoring and valuing peace is recognized by the international community.

Keywords: Uzbek, Uzbek society, stability, development, space and time, terrorism, extremism, radicalism, cybercrime, migration, international law.

Ma’lumki, tinch hayot kechirish butun insoniyatning azaliy orzusi hisoblanadi. Ammo mazkur voqelik ba’zi bir zamon va makon uchun orzu sifatida qolib kelmoqda. Bugun “xavfsizlikka nisbatan umumiy tahdidlar, xususan, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, kiberjinoyatchilik, narkotrafik va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda hamkorlik tobora

dolzarb bo‘lib bormoqda”, deb ta’kidlaydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 4-aprel kuni o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitidagi nutqida [1]. Hatto mazkur masalani davlatimiz rahbari joriy yilning 7-aprel kuni Toshkentda o‘tkazilgan Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley assambleyasi yalpi majlisidagi nutqida ham so‘zlab, Ukraina, G‘azo sektori va Afg‘onistondagi vaziyatga e’tibor qaratish uchun “jumladan, Falastin — Isroil nizosining yagona va adolatli yechimi ikki xalq uchun — ikki davlat tamoyilini ro‘yobga chiqarishdan iborat” ekanligi, yoki eng og‘riqli muammolarga xalqaro huquqning umume’tirof etilgan me‘yorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining nizomi va rezolyutsiyalari asosida yechim topish muhimligini aytdi [2].

Bugungi kunda jahon tartibotida davlatlarning jahon xaritasida o‘z o‘rnini saqlab qolishi, xalqaro maydondagi murakkab vaziyatlarda milliy davlatchilikka bo‘layotgan tahdidlarga qarshi tura olishi, real suverenitetini mustahkamlashi hamda jamiyat siyosiy tizimining milliy manfaatlarini ta’minlash jarayonida o‘zgarish masalasini ilmiy jihatdan tadqiq etish zaruriyat hisoblanmoqda [3].

Shunday bo‘lsa-da, bugun Yangi O‘zbekiston jamiyatida yurtimizning tinchligi va barqarorligi – milliy ma’naviyatimizning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bunga birinchi asosiy sabab xalqimizning ko‘p ming yillik tarixi davomida otabobolarimizning yurt ozodligi va tinchligi yo‘lidagi yuksak matonati bo‘lsa, ikkinchi sabab xalqimizning qalbidagi shukronalik hissining islomiy ta’limotlar bilan sug‘orilganligidir. Xalqimiz qalbidagi shukronalik, Alloh (Qur‘oni karim)ga bo‘lgan ishonch, Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga (hadislar) bo‘lgan muhabbat hamda islom diniga bo‘lgan e’tiqod asosida uyg‘unlashgan.

Shu boisdan, tinchlik va barqarorlik butun insoniyat uchun bebaho ne‘mat, ulug‘ saodat sifatida tavsiflanadi. Bu esa jahondagi barcha xalqlar qadrlashi, uni saqlash uchun kurashishi, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yashashga intilishi aksioma tarzida qabul qilinadi. Dunyoda biror bir xalq urush yoki qon to‘kishga, qirg‘in-barot yoxud g‘alayonlarga da’vat qilmaydi, balki tinchlik va xotirjamlikka, barqaror taraqqiyot hamda ichki totuvlikka intilib yashashga harakat qiladi.

Bugungi kunda “tinchlik” tushunchasi xalqlar va millatlar madaniyatida turli xil tarzda e’tirof etilib, unga oid afsonaviy, diniy va badiiy merosda alohida o‘rin egallaydi. Chunki har bir xalq taqdirini belgilashda milliy ehtiyojlar inobatga olinadi va ularni tatbiq etish yoki himoyasini amalga oshirish uchun mavjud resurslariga tayanadi. Bunda resurs sifatida ilm-fan, ishlab chiqarish sohalari, sanoat, yer usti va yer osti boyliklari, texnika, armiya, aholining savodxonlik darajasi kabi omillar gavdalanadi.

Shu sababli tinchlik davlatlarning tinch-totuv yashashi uchun hayotiy zarur shart-sharoitlarni belgilab, xalqlar va davlatlar o‘rtasida milliy manfaatlarning inobatga olinishi, tashqi siyosatda zo‘ravonlik vositalarisiz faoliyat yuritilishi, ochiq harbiy to‘qnashuvlar olib borilmasligi hamda xalqaro shartnomalarga oid majburiyatlarning bajarilishiga asoslangan yaxlit ierarxik tizim sifatidagi kategoriyalar majmuasi hisoblanadi.

Tinchlik va vayronkorlik o‘rtasidagi munosabat ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash kabi azaliy va abadiydir. Darhaqiqat, “Mening nazarimda, – deb ta’kidlagan edi O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimov, – odamning qalbida ikkita kuch – bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o‘zaro kurashadi. Afsus bilan ta’kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko‘ra vahshiylik, ur-yikit instinktlari, ya’ni xatti-harakatlarini qo‘zg‘atib yuborish osonroq” [4].

Bu o‘sha davrning eng og‘riqli vaziyatlari va hodisalarini tushunish va anglash uchun tarixiy xotira hisoblanadi.

Sharq xalqlaridagi davlat va jamiyat masalalariga tatbiq etish mumkin bo‘lgan umumiy belgi ularning tarixiy-madaniy rivojlanishiga asrlar osha ta’sir etib kelayotgan xilma-xil diniy madaniyatidir. Ularga konfutsiylik, hind-buddaviylik va islom kiradi [5].

Ma'lumki, osoyishtalik, tinchlikni saqlash, tinch-totuv yashash — o'zbek xalqining betakror qadriyati va burchi hisoblanadi. Bu burch ota-bobolarimizning tinchlik uchun olib borgan kurashlari evaziga bizgacha meros bo'lib kelayotgan oliy qadriyatdir.

O'zbek xalqining milliy falsafasida tinchlik quyidagi tizimda uyg'unlashadi:

Oila ↔ Mahalla ↔ Davlat ↔ Jamiyat → Mintaqaviy ↔ Xalqaro ↔ Global munosabatlar tizimi.

Shu asosda "o'zbek xalqining tinchlik falsafasi" shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda aksariyat jamiyatlar barqarorlikni insoniyat taraqqiyotining asosiy tayanchi deb e'tirof etmoqda. Chunki tinch va barqaror muhitda shaxs kamol topadi, jamiyat mustahkamlanadi va kuchli davlat barpo bo'ladi. Shu sababli mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatni tajovuzkor kuchlardan himoya qilish har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 4-aprel kuni o'tkazilgan "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitidagi nutqi. // <https://president.uz/uz/lists/view/8023>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi. // <https://president.uz/uz/lists/view/8034>
3. Bo'tayev U. O'zbekiston jamiyati siyosiy tizimini milliy manfaatlarni ta'minlashdagi dinamikasi mavzusidagi siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2022-y.
4. Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin!" // J. "Tafakkur", 1998-y. №3.
5. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. – 16 b.
6. Milliy istiqbol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug'at). – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2001. – 220 b.
7. Jo'rayev T., Akobirov S. Milliy manfaatlar va milliy xavfsizlik. – T.: "Akademiya", 2007. – B. 17.